XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-5-031-7-94-K/24 Jomboy tumani

Jomboy tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining budjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1011-sonli Qonuni, xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-5-025-7-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq hamda Samarqand viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/10-38/3530-sonli, tuman davlat soliq inspeksiyasining 2024-yil 27-dekabrdagi P-09421-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1011-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-5-025-7-0-K/24-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-5-025-7-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq, Jomboy tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari 120 724 045,0 ming so‘m va xarajatlari esa 120 724 045,0 ming so‘m ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Jomboy tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 944 000,0 ming so‘m etib belgilanganligi hamda tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlar va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun 1 594 242,0 ming so‘m miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koyeffitsientlar 3-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koyeffitsientlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i(A.Sadullayev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Salomov), tuman soliq inspeksiyasi (B.Baratov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (U.Mamatov) zimmasiga yuklatilsin

10. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengash raisi

SOBIROV KAYUM XAMRAYEVICH

Xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-031-7-94-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jomboy tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**120 724 045,0**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	10 029 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	33 051 500,0
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 806 000,0
4	Benzin dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	1 079 120,0
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 895 000,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	12 811 825,0
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	24 594 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	20 865 000,0
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	610 000,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6 840 600,0
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	142 000,0

Xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-031-7-94-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Jomboy tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori jami		**120 724 045,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	33 176 596,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	3 370 472,0
2	Madaniyat bo‘limi	6 073 913,0
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	4 412 002,0
4	Sport bo‘limi	5 972 271,0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 943 562,0
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	4 326 691,0
7	Irrigatsiya bo‘limi	1 600 000,0
8	*Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari*	2 185 622,0
9	Hokimiyat	44 281 985,0
	shundan:	
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	55 125,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	31 306 563,0
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	2 170 000,0
	Zahira jamg‘armasi	1 594 242,0
10	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	667 275,0
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	172 559,0
	Axborot-kutubxona markazlari	494 716,0
11	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	16 084 128,0

Xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-031-7-94-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T,r	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (ming so‘mda)
1	Gulistan mahallasi	1,77	67 677,72
2	Alisher Navoiy mahallasi	1,77	67 677,72
3	Axmadjan Qurbanov mahallasi	1,77	67 677,72
4	Beshbola mahallasi	1,48	56 589,28
5	Nayman mahallasi	1,18	45 118,48
6	G‘azira mahallasi	1,34	51 236,24
7	Dexqonobod mahallasi	1,63	62 324,68
8	Ko‘kgumbaz mahallasi	1,18	45 118,48
9	Zarafshon mahallasi	1,77	67 677,72
10	Qang‘li mahallasi	1,34	51 236,24
11	Kattaqishloq mahallasi	1,63	62 324,68
12	Qoramo‘yin mahallasi	1,34	51 236,24
13	Quduqli mahallasi	1,04	39 765,44
14	Naymantepa mahallasi	1,34	51 236,24
15	Qo‘lbosti mahallasi	1,04	39 765,44
16	Qo‘ng‘irot mahallasi	1,04	39 765,44
17	Juriyat mahallasi	1,48	56 589,28
18	Nogaxon mahallasi	1,04	39 765,44
19	Sarchashma mahallasi	1,63	62 324,68
20	Olmazor mahallasi	1,18	45 118,48

21	Nazar mahallasi	1,77	67 677,72
22	Eski Jomboy mahallasi	1,48	56 589,28
23	Shodlik mahallasi	1,77	67 677,72
24	Shirinkent mahallasi	1,63	62 324,68
25	Sherqo‘rg‘on mahallasi	1,04	39 765,44
26	Xolvoyi mahallasi	1,77	67 677,72
27	Xitoypayon mahallasi	1,04	39 765,44
28	No‘sh mahallasi	1,34	51 236,24
29	Tut mahallasi	1,48	56 589,28
30	Toshkent mahallasi	1,77	67 677,72
31	Taldirazzoq mahallasi	1,04	39 765,44
32	So‘xmon mahallasi	1,63	62 324,68
33	Saroy mahallasi	1,34	51 236,24
34	Sariqipchoq mahallasi	1,04	39 765,44
35	Samarqand mahallasi	1,77	67 677,72
36	Polvonariq mahallasi	1,04	39 765,44
37	To‘qqizboy mahallasi	1,04	39 765,44
38	Qo‘rg‘onsalamon mahallasi	1,34	51 236,24

Xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-031-7-94-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T.r	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
1	Gulistan mahallasi	2,11	557,31
2	Alisher Navoiy mahallasi	2,11	557,31
3	Axmadjan Qurbanov mahallasi	2,11	557,31
4	Beshbola mahallasi	1,54	406,76
5	Nayman mahallasi	1,34	353,93
6	G‘azira mahallasi	1,34	353,93
7	Dexqonobod mahallasi	1,91	504,49
8	Ko‘kgumbaz mahallasi	1,34	353,93
9	Zarafshon mahallasi	2,11	557,31
10	Qang‘li mahallasi	1,73	456,94
11	Kattaqishloq mahallasi	2,11	557,31
12	Qoramo‘yin mahallasi	1,34	353,93
13	Quduqli mahallasi	1,34	353,93
14	Naymantepa mahallasi	1,34	353,93
15	Qo‘lbosti mahallasi	1,34	353,93
16	Qo‘ng‘irot mahallasi	1,34	353,93
17	Juriyat mahallasi	1,54	406,76
18	Nogaxon mahallasi	1,34	353,93
19	Sarchashma mahallasi	1,91	504,49
20	Olmazor mahallasi	1,34	353,93

21	Nazar mahallasi	2,11	557,31
22	Eski Jomboy mahallasi	1,73	456,94
23	Shodlik mahallasi	2,11	557,31
24	Shirinkent mahallasi	1,73	456,94
25	Sherqo‘rg‘on mahallasi	1,34	353,93
26	Xolvoyi mahallasi	2,11	557,31
27	Xitoypayon mahallasi	1,3	343,37
28	No‘sh mahallasi	1,54	406,76
29	Tut mahallasi	1,73	456,94
30	Toshkent mahallasi	2,11	557,31
31	Taldirazzoq mahallasi	1,34	353,93
32	So‘xmon mahallasi	1,91	504,49
33	Saroy mahallasi	1,54	406,76
34	Sariqipchoq mahallasi	1,34	353,93
35	Samarqand mahallasi	2,11	557,31
36	Polvonariq mahallasi	1,34	353,93
37	To‘qqizboy mahallasi	1,34	353,93
38	Qo‘rg‘onsalamon mahallasi	1,34	353,93